

ILMLI MAKON

*Surxondaryo viloyati Shoʻrchi tumani
46-maktab boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisi
Lolayeva Aybahor Mengniyozovna*

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizda badiiy, maʼrifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni bolalarga tavsiya etish orqali bolalar kitobxonligini oshirish, mutolaa madaniyatini shakillantirish masalalarini yoritib beradi.

Kalit soʻzlar: Kitob, kitobxon, mutolaa, noshirlik, maktabgacha taʼlim, kichik yoshdagi kitobxon, maktab yoshdagi kitobxon, oʻrta yosh kitobxon, bolalar adabiyoti.

Abstract: This article sheds light on the issues of increasing children's reading and forming reading culture in our country by recommending to children literature aimed at increasing the intellectual potential of young people.

Key words: Book, reader, reading, publishing, preschool education, young reader, school-aged reader, middle-aged reader, children's literature.

REJA:

- 1..Kitobga qoʻyilgan mehr
- 2..Kitobdan olingan ilm
- 3.Bilim va ilm makoni

Inson hayotida nimagaki erishmoqchi boʻlsa,avvalo unga oʻz ilmi orqali erishadi.Qaysi kasbni egallashidan qatʼiy nazar,har bir joyda ilm talab etiladi.Yaʼni ilmi kishi hech qayerda xor boʻlmaydi.Kitob oʻqigan inson boshqalarga qaraganda teran fikrlaydigan,yurish-turishida ajralib turadigan,oʻzining olamiga ega boʻlgan shaxs hisoblanadi.Shuning uchun ham kitob oʻqigan,unga mehr qoʻygan,kitobni muqaddas bilib unga mehr qoʻygan insonlarni ziyolilar deymiz. Qancha koʻp narsani bilgan insonning ishi ham har doim oldinga ketadi va atrofdagilardan bir qadam yuradi.Inson bu dunyoga kelganidan boshlab ota onasini qoʻlida tarbiyalanib boradi. Ulgʻayadi unib oʻsadi ota

onasiga nisbatan mehr uyg'onadi. Shunday ekan har bir inson chiroyli va baxtli yashash uchun kurashadi o'zi uchun o'zi harakat qiladi. Inson qancha ko'p kitob o'qigan sayin fikrlashlari va dunyo qarashlari rivojlanib boraveradi. Shunday ekan kitobga mehr qo'yib o'qishimiz kerak. Ma'naviyatining shakllanishida Kitobning o'rni beqiyos. Kitob yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berish vositasidir, kitob ularni erkin fikrlashga, dunyo qarashining kengayishiga, go'zal nutq sohibi bo'lishga o'rgatadi. Kitob insonga sodiq do'st, uning ichida barcha ilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Har bir kitobimizni sarlavhamizga mehr ko'z bilan boqishimiz lozim. Inson kichkinaligidan boshlab ota-onasidan, bobo-buvisidan, opasidan turli xil ertaklar, sarguzashtlar, hikoyalar eshitib bola kitob tanlay boshlaydi. Shu o'qigan kitoblariga nisbatan mehri asta-sekin rivojlanib boraveradi. Olimlar kitob o'qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul deb aytib o'tishgan. Ko'proq kitob o'qigan inson tajribali va ilimli bo'ladi. Chiroyli rahbar egasi bo'ladi. Manaviyatli insonlardan hisoblanadi. Deylik o'zimiz yashashimiz uchun bir qasr qurmoqchimiz, buning uchun bizda fundament ya'ni asos ko'nikma, ilmni tayyorlab olamiz. Keyin g'ishtlarimizni chiroyli rangga bo'yab ikki etajli qilib qurib boshlaymiz. Tomini uchburchak shaklida qundiramiz. Bizni qurgan qasr uyimiz hech kimda yo'q faqat bizda bor, nega bilasizmi sababi bizning uyimizni asosi mustahkam va mehr bilan qurilgan edida. Uyimizga barcha insonlarni havasi kelyapti.. Qasrimiz judayam chiroyli ichida turli xil gullar, katta katta xonalar va kutubxonalar bor. Naqadar ajoyib to'g'rimi! Chiroyli va yaxshi yashashimiz uchun biz izlanib kitob o'qib ilm olishimiz zarur. Kitoblar kutubxosiga kirib o'zingizga yoqqan bitta kitob oling va uni birinchi sahifasini o'qing kim tomondan yozilgan muallifini albatta o'rganing. Kitobni nima va qanaqa manoda yozilganini tushunib mehr bilan mutolaa qilsak biz albatta ilimli insonlardan bo'lamiz.. Buning uchun esa sabr e'tibor talab etiladi. Yoshi kattalarimiz o'qimishli insonni farzandi ham o'qimishli bo'ladi degan gap bejizga emas. Kitobga va ilmga mehr qo'ysak, katta kutubxonalarni rivojlantirib boraversak ilimli yoshlarimiz ko'payib boraveradi. Ilimli, o'qimishli inson hech qachon xor bo'lmaydi. Har kuni 20 daqiqani kitob o'qishga sarflang. O'qiyotgan kitobingizni yaxshi ko'rib o'qing bu o'zidagi ilmni kuchaytiradi

Kitobdan olingan ilm. Ilmni qanday olish mumkin degan savol barchani qiziqtiradi. Ilmni kitob o'qish orqali olish mumkin. Kitob insonni kamolotga yetaklaydi. Kitob o'qish orqali inson ko'plab bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni boshlaydi. Qaysi va qanaqa kitob o'qishizdan qat'iy nazar ma'no va mazmunini tushunib o'qishimiz kerak.. Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rmagan. Ilmni egallab uni davom ettirish ham bir san'atdir. Har bir o'qigan kitobimizni ichida bir qancha ma'no mazmun bor. O'qiganlarimiz ham hayotiy voqealardan yozilgan va muayyan etgan. Biz qanchalik intilib harakat qilib ilmni izidan borsak biz shunchalik rivojlanib boraveramiz. Ilm olish uchun ko'proq malaka, tajriba ko'nikmalar talab etiladi. Biz qanchalik ko'nikma tajribaga ega bo'lsak, biz albatta ziyoli inson bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, bolalar kitobxonligida bolalar adabiyoti bolalarni ma'rifatga yetaklaydi. Chunki barcha davrlar bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Shuning uchun bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yurtboshimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e'tibori tufayli barcha ta'lim maskanlaridagi o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Kirobxonlar bayrami", turli ko'rik- tanlovlari, dam olish maskanlarida ochilayotgan zamonaviy kitob do'konlari va faoliyat ko'rsatayotgan kutubxonalar yosh avlodni ma'naviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo'lishda muhim o'rin tutmoqda. Kitobning mohiyati mangudir... Bu mohiyat - tafakkurni abadiylashtiradi. Bu borada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha axborotkutubxona markazlarida bolalar kitobxonligining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Yosh kitobxonlarga tavsiya qilgan kitoblar orqali kitobxonlar mutolaa uchun zarur adabiyotni tanlashni bilib oladilar, shu bilan birgalikda, ular kitob o'qish orqali mulohazali, bilimli bo'lib, Yuksak tafakkuri bilan boshqalardan o'zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bo'lgan bola yaxshi inson bo'lib ulg'ayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammadaliyeva Nasiba. "Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda axborot-kutubxona markazlarining o'rni" Umumta'lim fanlar metodikasi.-2021 y, 8- son.
2. I.J. Yuldashev, O'. Nosirov. Kutubxona-axborot xizmati: nazariya va amaliyoti-o'quv qo'llanma. T.-2020y, 397 bet.
3. Erkin Vohidov.Orzuli dunyo: She'rlar,-T.: "Sharq",2010.- 208 b.
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" , 2008.
5. Bekmatova Dinara. "Yoshlar tarbiyasi-kun tartibidagi masala" Boshlang'ich ta'lim.-2021-y, 9-son.
6. Y. Isayev. Abu Ali Ibn Sino,ilmiy-ommabop risolasi, T.:2010-y. "Tafakkur"- 95 bet.
7. "Buyuk yurt allomalari" risolasi, T.: "O'zbekiston".-2016 y.425 bet.
8. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.: 2006-y, 216 bet.
9. S.Yuldosheva.O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021
10. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, 43-51.